

**IKKINCHI SINF ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIKLARI ASOSIDA
RASMLAR USTIDA ISHLASH TEKNALOGIYALARINI SHAKILLANTIRISH**

Qulmurodova S.S.

Ilmiy rahbar

Sattorova Dilnura

O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti BTU 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsliklarining asosiy vazifasi o'quvchilarning o'quv bilim faolyatiga tayyorlash boshqalar bilan muloqotga kirisha oladigan , o'z fikrini boshqalarga tushunarli tarzda yetkaza oladigan shaxsni tarbiyalashdan iborat. 2-sinflar uchun 2021-yilda o'zgacha zamonaviy ruhda tayyorlangan yangi “Ona tili va o'qish savodxonligi darsliklarida keltirilgan rasmlar asosidagi mavzularning bolalar rivojlanishidagi ta'siri va darslikda keltirilgan misollar orqali tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Ta'lism, pedagog, o'qituvchi, o'quvchi; boshlang'ich ta'lism, shaxs.*

Annotation: *The main task of elementary school mother tongue is to prepare students for learning activities, to educate them to be able to communicate with others in an understandable way. The affect of picture-based topics on children's development in the new Mother Tongue and Reading Literacy textbook prepared in 2021 in a very modern spirit for 2nd graders and analyzed through the examples give in the textbook.*

Keywords: *education, pedagogue, teacher, student, primary education, person.*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlar, yangilanish jarayonlari va islohatlardan ko'zlangan asosiy maqsad ozod va obod vatanda, rivojlangan fuqorolik jamiyatidan munosib o'rinn egallash,yoshlar tarbiyasining barqarorligiga erishish ekan, farovon va ma'nnaviy yetuk,hur fikr yurita oladigan ertamiz vorislarini ajdodlarimizni munosib farzand qilib tarbiyalash bugungi kunning oldida turgan asosiy muhim vazifalardan biri sanaladi. Hozirgi paytda o'qituvchining kasbiy mahorati, o'quvchilar uchun muhim ro'l o'ynaydi. Chunki, o'qituvchi salohiyatli bo'lmasa darsga kirganda oddiy bir tushunchani o'quvchilarga yetkazib berolmasa va o'quvchilarni hammasini dars jarayoniga qamrab olishni uddalay olmasa, u insondan o'qituvchi bo'lmaydi. O'qituvchi nafaqat pedagok balki, ajoyib pisixalok bo'lishi lozim. Shaxsning muayyan sifatini tarbiyalashda, mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishda fanlararo uzviylik muhim ahamiyat kasb etadi. Asosan, keying yillarda boshlang'ich sinf maktab darsliklarida rasmlar asosida darslar o'tish keng yo'lga qo'yildi. Dars mazmunini o'quvchi o'z salohiyati bilan rasmlarni sinchikovlik bilan kuzatgan holda fikrlab qisqa matnlar, masalalar, hikoyalar va insholar tuzib kelmoqdalar. Bu jarayon turli fanlar kesmida Boshlang'ich sinf kitobida o'z aksini topmoqda desak hech mubolag'a bo'lmaydi. Ikkinchi sinflar uchun mo'ljallanga onatili va o'qish savodxonligiga nazar tashlaydigan bo'lsak har bir bo'lim

bolalarga ta'lif berish bilan birga, bilim, malaka hosil qilish, ularda kundalik turmushda ro'y berayotgan voqea hodisalarga qiziqish uyg'otish, rasmlarni kuzatish, xulosalar chiqarishga o'rgatadi.

Kitoblarda keltirilgan rasmlar bolalarning fikrlash qobiliyatini , nutqini o'stirishga hamda ularni ijodiy tahlil qilishga mo'ljallangan. O'quvchilar rasmlarni, tomosha qilib, tasvirlangan narsa voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildiradilar, ulardan zavq oladilar, o'zlar ham ijodoy ravishda asar mazmuniga mos rasmlar ishlashga o'z tasurotlarini ifodalashga o'rganadilar. Darslida berilgan har bir rasm o'quvchilarning fikrlash doirasini o'stirish bilan birga ularda tevarak-atrofga munosabat, odob-axloq malakalarini o'zlarida mujassamlash, asardagi qahramonlarga taqlid qilish, ulardagi eng yaxshi xislatlarini egallash irodali, mehnatsevar, jasur kamtar vijdonli, mehribon va iltifotli bo'lish kabilarni o'zlashtirib borishga qaratilgan. Ona tili darsliklarida keltirilgan mashqlarga etiborimizni qaratsak, bolalarni faollikka o'rgatish uchun ma'nodosh so'zlarni topish o'yinlarni tashkil etish, bunday so'zlarni nutqda o'rini qo'llashni, gap tuzishda esa so'zlar orasidagi bog'lanishlarga mos turli o'xshatishlar kabi ishlar doimiy ravishda o'tkaziladi.

Rasmlarga yoki tasviriy vositalarga qarab gap tuzishni, gapda so'zlarning tarkibiy bir-biriga bog'lanishiga, so'zlar o'rnini almashtirib, gapni qayta tuzib o'qishda izchillikka rioya qilish mashqlarni o'tkazish mumkin. Hikoya, ertak, matlarni so'zlab berishda qahramonlar ovoziga taqlid qilish, rasmda narsalarni taqqoslab tasvirlash, sayr, tomosha mehnat, haqida hikoya qilish, misollar keltirish matnda tasvirlangan voqealar haqida xulosalar chiqarish badiy matn ustida ishlashga o'rgatish, matnni qismlarga bo'lib ularni mazmuniga mos sarlavhalar toppish, ijodiy rasmlar ishlash kabi jarayonlarda bolalar tafakkur qilishga o'rganadilar. Bolalarga yana ham yaxshiroq, tushinarliroq va qiziqarli bo'lishi uchun insho yozish jarayonida ularga yozilishi kerak bo'lgan mavzularga mos keladigan ma'no jihatidan o'xshash bo'lgan sarlavha tanlanadi va o'quvchilarga o'qib eshittiriladi, mavzu yuzasidan faollashtirivchi savollar beriladi. har xil predmetlar asosida mavzu mohiyati ochib beriladi, mavzuga mos rejalar qo'yiladi. O'quvchilarga sarlovha va reja asosida mavzuni yoritish eslatiladi. Hamda o'quvchilarning mavzu doirasidagi fikrlari tinglanadi. Ikkinci sinflarda yozma ishlarni barcha turlaridan foydalanish ko'zda tutiladi va sodda shakldagi matnlarni asosida bayon yozish mashq qilinadi. Insho esa faqat rejadagi so'roqlar yoki yo'llovchi gaplar, tayanch so'zlar yordamida yoziladi. Insho yozishda rasmlar ko'rgazmalardan foydalanish va mantiqiy fikrlash bola uchun yangi g'yalar sari yo'l ochib beradi.

Dastlab bolalar atrofda uchraydigan narsalar, uy ro'zg'or buyimlari, doimiy faolyat bilan bog'liq predmetlar, o'qish va mehnat anjomlari, hayvon va qushlar, o'simliklar mavsumiy o'zgarishlar tasvirlanga rasmlardan foydalanga holda matnlarni insholar yozishlari maqsadga muofiq bo'adi. Rasmlar asosida insho va hikoyalar yozdirish usullarini keng qo'llash lozim. Bu esa jamoa bilan ishlashga mo'ljallanadi. Bu jarayon quydagicha olib borish mumkin. Bolalar rasmlarni bir-ikki daqiqa tomosha

qiladilar. So'ng o'qituvchi o'quvchilarga savol tariqasida faollikka chaqirish mashqlarini o'tkazadi.

-o'quvchilar rasmida nimalar tasvirlangan ?

Kitob, daftar, ruchka maktab tasvirlanga deb javob beradilar.

Ulardan kimlar foydalanadi?

O'quvchilar.

Rasmlardan avval og'izaki hikoya tuziladi. So'ng qog'ozga tushiriladi.

O'quvchilar bilan rasmida keltirilganlarni qanday yozish mashq qilinadi.

Mashqlar doimiy tarzda olib borilsa ularda so'zlarni to'g'ri yozish malakalari shakillanadi va o'quvchilar imloviy xatoga yo'l qo'ymaydilar.

Onatili va o'qish savodxonligida keltirilgan she'rler tahvilini ham rasmlar asosida olib borish mumkin. She'r matni va sarlavhasi o'quvchilarga taqdim qilishdan oldin o'tiladigan mavzu haqida qisqacha suxbat olib boriladi va dastlabki, tushunchalar beriladi mavzu nomi doskada yoziladi. She'r bir marotaba baland ovozda o'qib beriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsliklarida she'r matni yuzasiga doir rasm keltiligan.O'qituvchi shu rasmlar asosida mavzuning mohiyatini to'laligicha o'quvchilarga ochib berishi kerak.

Kuz keldi, bizlarga oltin kosada

Sharbat ola keldi, bol ola keldi.

Savat-savat qilib shirin mevalar

Omborlar liq to'la don ola keldi.

She'r yuzasida turli savollar o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga beriladi.

- Kuz qanday fasl?
- Bir yilda nechta fasl bor?
- Kuz faslida qanday mevalar pishadi?
- Kuzda qanday ishlar olib boriladi?

O'quvchilar kuz haqidagi fiklarini bayon qiladilar va savollarga javob beradilar o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida erkin muloqot olib boriladi.

O'qituvchi she'rni yana bir bor o'qib beradi, she'rda nimalar aks etganini va shu jarayonni birlgilikda o'qish daftarlariiga chizib bo'yashlarini aytadi. O'quvchilar eslab qolish va tushunish qobiliyatlaridan foydalangan holda ularni qog'ozga tushuradilar, bu jarayon boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'surotni va dunyo qarashni yanada rivojlantiradi hamda ularga estetik zavq bag'ishlaydi. Darslikdagi har bir bo'limdan keyin o'quvchilar qoldiq qog'ozlardan foydalangan holda yon daftar yasashadi. Uni bo'limdagi she'r va mavzularga mos rasmlar bilan bezashlari topshiriq qilib beriladi, tayyor bo'lgan daftarga esa o'zlari xoxlagan mavzuni qo'yiladi. Masalan: "mening oilam", "do'stlar davrasida", "xush kelding bahor", va hakazolar.

Darsda faqat o'quvchilar uchun odatiy holga aylanib qolga jarayonni emas balki har bir dars o'zgacha va maroqli bo'lishi uchun zamin yaratish biz pedagoglarni asosiy vazifasidir. Turli metodlardan foydalanga holda o'quvchilarni qiziqtira olish darsga

bo'lgan muhabbatni yanada oshiradi. Darsda o'tilgan mavzulardan tashqari mustaqil ishlar berish ham samarali metod hisoblanadi. Bunda o'qituvchi oq qog'ozga uch dona turli narsalar rasmini har bir o'quvchini o'z o'ziga yetadigan holda takrorlanmas rasmlar chizib kelgan bo'lishi kerak. Va rasmlar pastki qismiga ona tili daftarlarining kattaligi o'lchamida bir necha qator chiziq tortilgan bo'ladi va o'quvchilarga malum bir vaqt belgilanib shu vaqt ichida rasmlarga asoslanib gap tuzishlari kerakligi tushuntiriladi. Rasmlar qanday bo'lishi kerak? Masalan: birinchi rasmda quyosh ikkinchisida nonushta va uchinchisida maktab.

Vaqt nihoyasiga yetgach o'quvchilardan qanday gaplar tuzganliklari so'raladi shu tariqa ular qanday fikr yuritadi, ularning dunyoqarashlari qay darajada shakillanmoqda, ular pisixalagik yordamga muhtojmi yoki bolaning aqliy rivojlanishi o'z meyorida ekanligini bilib olish mumkin. Mustaqil ish nihoyalagach barcha o'quvchilar rag'batlantiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.2017-2021-yil xarakatlar strategiyasi
2. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-qism darslik 2-sinf k.Mavlonova. Toshkent Respublika ta'lim markazi,2021.
3. Ona tili va o'qish savodxonligi 2-qism darslik K.Mavlonova Toshkent Respublika ta'lim markazi. 2021.